

O'ZBEKISTONDA BADIY NAQQOSHLIK SAN'ATINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Xaytmetov Dilshodjon Turayevich

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn
instituti, "Amaliy bezak san'ati" kafedrası dotsenti

Ibragimova Zarina Yoqubjonova

Kamiliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti,
"Tasviriy va amaliy bezak san'ati" mutaxassisligi 1 - kurs magistranti

Annotatsiya:

Mazkur maqola ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan xalq amaliy bezak san'atining rivojlanishi hamda shakllanishi, shuningdek Toshkent naqqoshlik san'atining o'tmishi va bugungi kundagi rivojlanishi naqqoshlik namunalari bilan uyg'unligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: naqqoshlik, bezak, kompozitsiya, san'at, maktab, usta, naqsh, ustoz-shogird, o'simlik.

Аннотация:

В данной статье рассказывается о развитии и становлении народного декоративно-прикладного искусства, имеющего многовековую историю, а также о гармонии прошлого и настоящего развития Ташкентского декоративно-прикладного искусства с образцами узоров.

Ключевые слова: роспись, орнамент, композиция, искусство, школа, мастер, узор, наставник-ученик, растение.

Abstract:

This article describes the development and formation of folk decorative and applied art, which has a centuries-old history, as well as the harmony of the past and present development of Tashkent decorative and applied art with patterns.



Keywords: painting, ornament, composition, art, school, master, pattern, mentor-student, plant.

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati madaniy merosimizning asosiy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib, gullab yashnagan amaliy san'at turlari bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bu taraqqiyot bosqichi xaqida fikr yuritar ekanmiz, o'zbek amaliy bezak san'atining kelib chiqishi insoniyatning ilk davri, ya'ni ibtidoiy jamoa davriga borib taqalishining guvohi bo'lamiz. O'lkamiz zaminidagi arxeologik qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berish usuli bilan buyum yaratish faoliyati tosh asridayok boshlanib, asrlar osha hozirgacha davom etib kelmokda.

Xalq-amaliy bezak san'atining bir turi sifatida naqqoshlik san'ati qadimdan o'zbek madaniyatining muhim bo'lagi bo'lib kelmoqda. Bir so'z bilan aytganda, barcha amaliy san'at turlarida bezak sifatida naqsh gullari, elementlari o'z aksini topmoqda, shuning uchun naqqoshlik san'ati boshqa amaliy bezak san'ati turlariga poydevor vazifasini bajaradi. Naqshlarda san'atning boshqa hamma turlaridan farqli ravishda avlodlarning chambarchas bog'liqligini ya'ni ustoz-shogird an'alarining ko'rish mumkin. Naqqoshlik an'analari san'atning ana shu turini o'rganish metodlari sifatida hamma bobodan otaga, otadan bolaga o'tib kelgan anashu doimiylik tufayli naqqoshlik san'ati hozirgacha saqlanib kelmoqda. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijod kompozitsiya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go'zalligi bilan farqlanadi.

Milliy naqshlarimiz g'oyadan boy mazmunga ega. Oddiy qoshiq, lagan, quticha, sandiq, belanchak, cholg'u asboblari, uy-ro'zg'or buyumlaridan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi, uni uylantiradi. Bu go'zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonida yaratilgan bo'lib, asrlar davomida bunyod topdi rivojlandi, me'morchilik hamda tasviriy san'at rivoji bilan bog'langan xolda takomillashib bordi.

Naqsh – arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Qush hayvon o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlashidan hosil qilingan bezakdir. ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, to'qimachilik, panjaralar va xokozolarda turli xil yo'llar bilan naqshlar



ishlaniladi. Naqqoshlik barcha xalqlarda qadimdan mavjud ekanligi bizga ma'lum bo'ladi. Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos muhitida geografik o'rniga ulkaning o'simlik dunyosiga ko'ra rivoj topdi. O'zbek xalqining naqshlariga qarasak anor, bodom, gullar, qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko'rasiz. Islom talablariga bo'ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarning tasvirlash yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuv o'zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ladi. Arab yozuvi naqshlari bilan birga chiziladi. Arab yozuvi ham bezak ham duo - afsunlar vazifasini bajaradi.

IX-X asrlarda o'rta osiyo naqqoshlik san'ati avj olib rivojlandi. Binolarning ichki tomonida ganch, yog'och o'ymakorligining qo'llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch-naqsh bilan juda nafis bezatildi, asta sekin naqshlar murakkablashib bordi. Har bir chizilgan naqsh o'ziga xos ma'noga ega bo'lgan. Chunonchi o'simliksimon naqsh gulsapsarini olaylik, u osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, (pechak islmi) naqsh gullari boylik va faravonlikni, novda va yaproqlar esa tukinchilik hamda bahor chog'ida uyg'onishni bildiradi. Uning ranglari o'ziga xos ma'no va xarakterga ega naqqoshlik san'ati o'zbek madaniyatining barcha bosqichlarida o'z aksini topgan. [2. 142-143 b.].

O'zbekistonda naqqoshlik san'atining rivojlanishi: O'zbek xalqining qarovsiz yotgan madaniyat durdonalari tarixiy yodgorliklarini saqlash va madaniy merosini to'planishni davlatimiz o'z zimmasiga oldi madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyati tuzildi. Naqqosh ustalari ham boshqa ustalar qatorida masjid, madrasa, turar joylarni, saroylarni ta'mirlashni boshlab yubordilar 30-yillardan so'ng ko'pgina jamoat uylari, choyxonalar, madaniyat uylari, saroylari va boshqa joylarni yog'och naqsh va ganch bilan bezatila boshladi. U yerda ajoyib namayondalar qandillar, o'yma ganchlar va naqshlar bilan bezatilgan. 1939-yilda Samarqand va Buxoroning eng yaxshi ustalaridan 12 kishi Alisher Navoiy nomidagi muzeyi binosining ajoyib naqshlari bilan bezatdilar. Shu yillari (Bahor) konsert zalini ham naqsh, ganch o'ymakorligi bilan bezatildi. Naqqoshlik san'atining rivojlantirishda ajoyib xalq ustalari Farg'onalik Saidmaxmud Norqo'ziyev, toshkentlik Tohir Tuxtayo'jayev, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Jalil Xakimov, xivalik Abdulla Boltayev, S.Xudoyberganov, X.Raximov, samarqandlik Jalol va Bolta Jalilovlar, usta Madaminjon Xusanov va boshqalar hamda ularning shogirdlari yaratgan asarlar



hozir ham xalqqa xizmat qilyabdi. Ular avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan naqqoshlik san'atiga katta hissa qo'shdilar. Ular o'zbek naqshlarining elementlariga yangicha elementlar (uroq va bolg'a, kabutar, paxta, yulduz va boshqalar) yangicha g'oyalar kiritdilar. Lekin o'zimizning ananaviy o'zbek xalqining o'ziga xos milliy san'atini saqlab qoldilar. Ular zamonaviy binolarga moslab o'zbek milliy naqsh elementlari bo'lmish nozik majnuntol, nihollari, anor butog'i gulli butalar va boshqa o'simliklarni tasvirladilar.

Naqqoshlik maktablari: Xiva, Qo'qon, Buxoro xonliklari davrida xalq amaliy san'ati ustalari shu shaharlarga yig'ila boshladilar. XIX asr arxitektura yodgorliklarni kuzatsak, ular bir xil uslubda yaratilganligini ko'ramiz. Chunki o'sha davrda naqqoshlar ish axtarib boshqa shaharlarga borar edilar yoki buyurtma bo'yicha boshqa shaharlarga borib binolarni bezar edilar. Ko'pincha Farg'ona va Buxoro naqqoshlari Samarqandga Qo'qon, Margilon ustalari toshkentga kelib ko'pgina binolarni bezar edilar. Bu esa naqqoshlik maktablarining yanada rivojlanishiga o'ziga xos kompozitsiyalarning yaratishiga, ranglar majmuasining yanada boyitishga juda katta rol o'ynaydi. Lekin bu naqshlar bir biriga o'xshasada har bir shahar va har bir ustaning o'ziga xos rang majmuasi koloriti, uslubi kompozitsiyasi jihatida farq qiladi. Agar biz XX-asr orasida yaratilgan naqshlarni ko'zatsak, har bir rayon va viloyatlar o'ziga xos naqqoshlik maktablari yaratilganini ko'ramiz.

Farg'ona naqqoshlik maktabi: Farg'ona naqshi Xo'jand, Marg'ilon, Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Namangan, chust, Quva, Oltiariq va rishton shaharlarida vujudga kelgan uslublardan iborat. XIX asr va XX asr boshlariga mansub bo'lgan naqshlar ko'plab osori atiqalarda saqlanib qolgan. Qo'qondagi madalixon dahasi va Daxai Shoxon, Xudoyorxon o'rdasidagi va boshqa naqshlar o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lsada Farg'ona naqshlarida ko'proq Buxora Xiva naqshlarining ta'siri bor. Xattoki rus naqqoshlarning uslubi ham unda-munda uchrab turadi. Lekin Farg'ona vodiysida o'ziga xos naqqoshlik maktabi rivoj topgan edi. Farg'ona naqqoshlari girix, o'simliksimon va gulli girix naqshlarini bezaklarda qo'llaganlar. U boshqa naqqoshlik maktablaridan naqshlarning tabiatga juda yaqinligi, erkin ishlanishi, ranglarning kontrastligi bilan farqlanadi. Bulardan tashqari Farg'ona naqshlarida tabiatdagi gul, barg, g'uncha va boshqalar to'g'ridan to'g'ri foydalanilgan. Farg'ona vodiylaridagi naqsh kompozitsiyalarning tabiatga juda yaqinligi Toshkent, Xiva va



Samarqand naqshlaridan ajralib turadi. Farg'ona naqqoshlik maktabining namayondalaridan biri Saidmaxmud Norqo'ziyevdir. [3.149-151 b.]

Toshkent naqqoshlik maktabi. Toshkent naqshlari o'zining nafisligi va ranglarning bir biriga asta sekin o'tishi aniq bir koloritga qat'iy rioya qilinishi, geometrik va o'simliksimon naqshlarning ko'p ishlatilishi bilan ajralib turadi. Naqshlar ko'pincha yashil gammada ishlanadi. O'simliksimon naqshlardan oygul, paxta, bofta, uch barg, shukufta, bargli gul va boshqa elementlar aniq sitillashtirilgan murakkab geometrik naqsh ishlanadi. Naqqosh ustalardan Jalil Hakimov, Toyir To'xtaxo'jayev, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Anvar Ilxomov, Komil Karimov va boshqalar Toshkent naqqoshlik maktabining asoschilaridirlar. [1. 152 – 159 b].

Xiva naqqoshlik maktabi. Xiva naqshlari Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Buxoro naqshidan tubdan farq qiladi. Rangli jihatdan kelsak, naqshlarning umumiy rang ko'pincha havorang koloritda ishlanadi. Ranglar kam ishlatilganda o'ziga xos ko'rkamlikka ega. Xiva naqshida asosan zangori va yashil ranglar juda ko'p ishlatiladi. Xorazm naqshlari butun yuzani geometrik naqshlar bilan to'ldirib moviy va yashil bo'yoq berishni yaxshi ko'rganlar. Kompozitsiyada naqshlarning tuzilishiga qaraganda, asosan novda spiralsimon aylanib- aylanib murakkab naqshlar hosil qiladi. Islimi naqsh kompozitsiyada novda, marg'ula, shukufta, barg, no'xat gul, oddiy oyguldan tashkil topadi. Bu islomiy naqshlar boshqa shaharlardagi naqqoshlik maktablaridan asosan naqshlarning dinamikaviyligi bilan farq qiladi. Ko'pincha yulduz hosil qiluvchi girixlar ishlatilib, orasiga spiralsimon islomiy naqsh ishlatiladi. Xiva naqshlari umuman madoxili naqshlar orasida tuziladi. Keyin esa islomiy naqsh spiralsimon mayda qilib ishlanadi. Xiva naqqoshlik maktabining namayondalari Abdulla Boltaev, Ro'zimat Masharipov, Odambay Yaqubov, Eshmurod Sapayev va boshqalar.

Buxoro naqqoshlik maktabi: Buxoro naqshlari kompozitsiyalarining murakkabligi, mukammalligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Buxoro naqshlaridan murakkab girixlar aniq o'lchamda ishlatilishi o'simliksimon naqshlarning o'ziga xos san'ati bilan ishlangani, shuningdek Samarqand Toshkent, Farg'ona naqshlariga o'xshab ketadi. Buxoro naqshlari o'ta guldorligi barg va gullarning badiiy xarakatchanligi jonliligi bilan farq qiladi. Unda murakkab girixlar Farg'ona naqshlariga o'simliksimon naqshlari bilan aniq bir ritm takrorlanuvchi naqshlar kompozitsiyasi bilan Toshkent naqshlariga o'xshab avval zangroq rang



gammada ko'p naqsh bajarilgan bo'lsa hozir esa yashil rang gammada ko'proq naqshlar bajariladi.

Naqsh atamolari: Har bir naqshning o'z nomi va mazmuni bo'ladi. Shunday ekan, naqshlar naqshlanadigan buyumning shakli hamda qanday maqsadda ishlatilishiga qarab tanlanadi va o'ziga xos nomlanadi. Masalan turunj, islomiy, madoxili, xoshiya, yakraftor, lo'la hoshiya, bandi rumiy, islomiy guldona, islomiy madohil, xashti tufdor, sarnig'on, tufdori qanot, turna qanot, xonaki bo'rtma, xashti davra, chorsar, davri sitora, shashdona, parrak, oftoba, patnis, islomi, lola islomiy, bofta islomiy, islomiy shukufat, shashdona, elpig'ich zanjira, yakka zanjira, gijjak islomiy, parrak, oftoba, erkin islomiy, bodom islomiy, bodom guli, aylanma islomi, bargli islomi, bargli raftor, mexrob islomiy, gulli aylanma islomiy, gulli raftor islomiy, patnis gulli islomiy, 5 raxli girix, 5-10 raxli girix, 3-5 raxli girix, 5-10-16 raxli girix, gulli girix, shoxbarg, islomi, qo'sh bargli islomi, muxabbati girix, muxabbati gul ruta, anorgul, morpech va boshqalar. o'simliksimon, geometrik, ramziy naqshlarga kiradi. [1. 162 - b.]

Xulosa qilib aytganda O'zbek xalq amaliy san'ati insoniyatni mehnatga, aqil-idrokka tafakkur qilishga, ijod qilishga, go'zalikka, intilishga o'rgatadi. Bugungi kunda ta'lim –tarbiya mazmunida uzluksiz ta'limni isloh qilish milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik milliy o'zlikni anglash, singdirish, milliy madaniy–tarixiy an'analarga va xalqimizni milliy merosiga hurmat, respublikamizning jahondagi mavqeva obro'-er'tiborini mustahkamlash kabi muhim omillilar amalga oshirilmoqda. Bu masalalarni amalga oshirishda ajdodlarimizni bizga qoldirgan ma'naviy xazinalari katta ahamiyatga egadir. Asrdan –asrga, avloddan–avlodga o'tib kelayotgan ulug' ajdodlarimizning milliy -ma'naviy merosi jahon sivilizatsiyasi durdonalarini tashkil etar ekan, uning shaxs kamolatidagi ahamiyati cheksizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S. Bulatov O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. <Mexnat > nashriyoti. 1991
2. Хайтметов Д.Т. Состояние развития художественно-творческих способностей учащихся на занятиях прикладным декоративно-прикладным искусством в современной образовательной практике. – ТADQIQOTLAR, 2023. № 1 (22). – С. 100-105.



3. Gulyamov K.M. Improving System of Future Applied Art Teachers Training based on
4. Competence Approach // Eastern European Scientific Journal Journal. - Germany, 2018. - № 6.
- pp. 83-88.
5. Haytmetov D. Dekorativ va amaliy san'at amaliyotida talabalarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari. – PEDAGOGS jurnali, 2023. № 1 (31). – B. 85-88.
6. Қосимов Қ.Қ. Наққошлик. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 160 б.
7. Азимов И. Ўзбекистон нақшу нигорлари. – Т.: Гафур Ғ'улом номидаги “Адабиёт ва санъат” нашриёти, 1987. – 144 б.
8. Haytmetov D. Amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarida talabalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modeli. – PEDAGOGS, 2023. № 2 (48). – B. 62-64.
9. Haytmetov D. Amaliy san'atda zamonaviy yondashuv. – World scientific research journal, 2022. № 1 (3). – B. 246-256.

